

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY ZARURIYATI

Xayitov Rustam Burxonovich

Navoiy innovatsiyalar universiteti

“Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18162929>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlarini shakllantirish xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyati yoritilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности, существующие возможности и социально-экономическая необходимость формирования хлопково-текстильных кластеров в условиях устойчивого развития региона.

Abstract. This article discusses the features, existing opportunities and socio-economic necessity of forming cotton-textile clusters in the sustainable development of the region.

Kalit so'zlar. Mintaqa, barqaror rivojlantirish, klaster, paxta-to'qimachilik klasterlari, sanoat.

Ключевые слова. Регион, устойчивое развитие, кластер, хлопково-текстильные кластеры, промышленность.

Key words. Region, sustainable development, cluster, cotton-textile clusters, industry.

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror va samarali rivojlantirishda tarmoqlararo hamkorlik va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olganda, paxta-to'qimachilik klasterlari qishloq xo'jaligi sohasini hamda ishlab chiqarish, qayta ishlash, eksport va xizmat ko'rsatish sohalarini qamrab olgan holda mahalliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu sohadagi mahsulot sifatida paxta iqtisodiyotida an'anaviy ravishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan mahsulot bo'lsa-da, ammo so'nggi yillarda ushbu sohani to'liq qayta ko'rib chiqish, xom ashyoni emas, balki tayyor mahsulotni eksport qilish, ichki ishlab chiqarish va ish o'rinlarini yaratish maqsadida **klaster tizimi** joriy etildi. Ushbu tizim doirasida fermerlar, qayta ishlash korxonalari, to'qimachilik fabrikalari va eksportchilar yagona texnologik va iqtisodiy zanjirga birlashtirildi hamda paxta-to'qimachilik klasterlari shaklida faoliyat ko'rsata boshladi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan esa paxta-to'qimachilik klasterlari qator ijobiy natijalarni beradi. Eng avvalo, mintaqalarda doimiy ish o'rinlari yaratildi, aholining bandligi ta'minlandi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlar ish bilan ta'minlandi. Moddiy-texnika bazasi rivojlandi, qishloqlarda yo'l, infratuzilma va ijtimoiy ob'ektlar qurilishiga investitsiyalar jalb etildi. Hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan esa klasterlar viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy notenglikni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu borada olimlarning yondashuv va qarashlarini o'rganish klasterlashning turlicha yondashuvlarini ochib beradi. Hududiy klaster ma'lum bir iqtisodiy samaraga erishish va ma'lum bir hududning raqobatdosh ustunliklarini amalga oshirish uchun yagona qiymat zanjiri doirasida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishda bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan, mintaqada mahalliyashtirilgan, o'zaro bog'langan kompaniyalar va tashkilotlar guruhini belgilaydi. Hududiy xo'jalik tashkil etishning

boshqa shakllaridan farqli o'laroq, klaster klaster ishtirokchilari o'rtasidagi raqobat va hamkorlik asosidagi bozor munosabatlari, shuningdek, o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashish qobiliyati bilan ajralib turadi. Ushbu klasterlar bozor iqtisodiyoti sharoitida, korxonalar o'zlarining raqobatdosh ustunliklarini mustahkamlashdan va ma'lum bir hududda birgalikdagi faoliyatdan ko'proq foyda olishdan manfaatdor bo'lganda shakllanadi [1]. Bundan tashqari, hududiy klaster hududiy xo'jalik tashkil etish shakli sifatida sanoatda va xizmat ko'rsatish sohasida rivojlanmoqda. Hudud iqtisodiyotini hududiy tashkil etishning klaster usuli aniq korxona va tashkilotlar ish shart-sharoitlarini o'rganishga qaratilgan.

Paxta-to'qimachilik klasterlari mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita sifatida ham e'tirof etiladi. Hozirgi globallashtirish va raqobat kuchayib borayotgan jahon bozorida ishlab chiqarish korxonalari nafaqat o'z ichki bozorini qondirishga, balki eksport orqali yirik xalqaro bozorlarga chiqishga intilishi lozim. Xalqaro maydonda raqobatbardosh ustunlikka erishish eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning samarali operatsion strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etadi. Bu boradagi tadqiqotlarga ko'ra, paxta xomashyosi narxini belgilash klaster modeli uchun yirik katta xavflardan biridir. Chunki, moliyaviy rag'batlarsiz fermerlar paxta xomashyosi ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilashga undamaydi va dolzarb vazifa bo'lib qoladi [2]. Unda ko'p bosqichli jarayonni tashkil etuvchi bir nechta kelishuvlar bozor ishtirokchilari mustaqilligi va moslashuvchanligini cheklaydi. Bu esa raqobat muhitini shakllantirishni sekinlashtirishi va klasterlarning davlat qarorlariga bog'liqligini oshirishi mumkin bo'lgan erkin bozor tamoyillariga zid hisoblanadi. Ammo, to'qimachilik ishlab chiqarishining kamida ikki bosqichini tashkil etish talabi bo'lib, yirik sarmoyalarni talab qiladi. Bu esa kichik va o'rta korxonalar uchun bozorga kirishni qiyinlashtiradi, ishtirokchilar sonini cheklaydi va bozorni monopollashtirishga yordam beradi [3]. Bu boradagi normativ hujjatlar, tegishli idoralar va tashkilotlarning hisobotlari, qo'llaniladigan usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanishi, masalan, qiyosiy, iqtisodiy va statistik, guruhlash usullari, ekspert baholari kabilarga qaratilishi kerak [4].

Paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi huquqiy va tashkiliy xarakterdagi muammolar (klaster faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasi, klasterlar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi munosabatlar, paxta-to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, eksport qilish va import qilishda yetakchi o'rinlarni egallagan hududlarda monopoliyalarning kuchayishi va boshqalar) kabi qator muammolar mavjud [5]. Shunga asosan, mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlarining tutgan o'rne quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarishni integratsiyalash va samaradorlikni oshirish: Paxta-to'qimachilik klasterlari mintaqadagi qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarini birlashtiradi, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirib, mahsulot sifatini yaxshilaydi hamda umumiy samaradorlikni oshiradi.

- ish o'rinlari yaratish va bandlikni ta'minlash: Klasterlar mintaqada yangi ish o'rinlarini tashkil etadi, ayniqsa qishloq joylarida bandlikni oshiradi. Bu ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi va kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi.

- **mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish:** Klasterlar mahalliy xomashyo - paxtani yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotga aylantirishni ta'minlab, mintaqaning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi.

- **eksport salohiyatini oshirish:** Paxta-to'qimachilik mahsulotlari eksporti orqali mintaqa valyuta tushumlarini ko'paytiradi va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi.

Shuningdek, mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlarining ijtimoiy-iqtisodiy zarurati esa quyidagilar bilan belgilanadi:

- **barqaror iqtisodiy o'sish:** Klasterlar mintaqaning iqtisodiy bazasini kengaytirib, uzoq muddatli rivojlanish uchun poydevor yaratadi.

- **ijtimoiy barqarorlik:** Bandlik va daromadlar oshishi mintaqadagi ijtimoiy muammolarni kamaytiradi, yoshlar va ayollar uchun imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, paxta-to'qimachilik klasterlari mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ular ishlab chiqarish zanjirini to'liq integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirib, bandlikni ta'minlaydi, innovatsiyalarni joriy etadi va mintaqaning eksport salohiyatini rivojlantiradi. Shu bois, davlat va biznes hamkorligi orqali paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish mintaqaning uzoq muddatli barqarorligi uchun zarur bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda, paxta-to'qimachilik klasteri paxta yetishtirishdan boshlab, uni qayta ishlash, tola ishlab chiqarish, gazlama to'qish, tikuv-trikotaj mahsulotlarini tayyorlash va nihoyat ularni ichki yoki tashqi bozorga chiqarishgacha bo'lgan barcha zanjirlarni o'z ichiga olgan tizimni aks ettiradi. Ushbu klaster doirasida fermer xo'jaliklari, to'qimachilik fabrikalari, tikuvchilik korxonalari, logistika kompaniyalari va eksportyorlar faoliyat yuritadi.

Список Использованной Литературы:

1. Юсупов Э.Дж., Кушаров З.К., Гайбуллаев О.Б. Вопросы конкурентоспособности и результаты кластеризации деятельности субъектов хлопкового сектора Узбекистана. // Евразийский Союз Ученых (ЕСУ), # 5(74), 2020. - с. 19.
2. Хлопково-текстильные кластеры в Узбекистане: Оценка и прогноз. 2 мая 2020 г. Диалог по модернизации сельского хозяйства Узбекистана. - с. 16.
3. Сагиева М.О. Комплексное исследование деятельности хлопково-текстильных кластеров Республики Каракалпакстан. // Экономика Центральной Азии, 2024, Т.8, № 4. - С. 289-304. – DOI 10.18334/asia.8.4.122432
4. <https://m-economy.ru/art.php?nArtId=7415>
5. Джурабаев О.Дж. Современное состояние и уровень развития производительных сил хлопково-текстильных кластеров. // Journal of marketing, business and management, Volume2, Issue4 (July), 2023. - с. 28.